



"OILA VA GENDER" ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI

MARKAZIY OSIYODA JAMIYAT, GENDER VA OILA

xalqaro ilmiy jurnali

*Society, Gender and Family in
Central Asia*
international academic peer reviewed journal

*Общество, гендер и семья в
Центральной Азии*
международный научный рецензируемый журнал

2025/1 (14)

Jurnalga Toshkent shahar Matbuot va axborot boshqarmasining 2021-yil 18-iyundagi 0996-sonli “Ommaviy axborot vositasi davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganligi to‘g‘risida guvohnoma”si olingan.

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar RO‘YXATI (2019)ga pedagogika, psixologiya, tarix va falsafa fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari himoyasi uchun ilmiy maqolalar e’lon qilinishi mumkin bo‘lgan jurnal sifatida ro‘yxatga olingan.

DOI: 26739/2118-9998

ISSN 2049-3630

TOSHKENT

TAHRIR HAY'ATI RAISI:

EGAMBERDIYEVA Nodira Melibayevna (*Bosh muharrir*) – pedagogika fanlari doktori, professor.

TAHRIR HAY'ATI A'ZOLARI:

NARBAYEVA Tanzila Kamalovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor.

SAIDOVA Galina Karimovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor.

SHOUMAROV G'ayrat Baxramovich – psixologiya fanlari doktori, professor.

ABDURAMANOV Xamid Xudaybergenovich (*Bosh muharrir o'rinnbosari*) – iqtisodiyot fanlari doktori, professor.

BEKMURADOV Adham Sharipovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor.

MA'RUFובה Gulnora Mahmudovna – Oly Majlis Senatining Xotin-qizlar va gender tenglik masalalari qo'mitasi a'zosi, senator.

MUSURMANOVA Aynisa Musurmanova – pedagogika fanlari doktori, professor.

RAHIMOVA Nigina Xayrullayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor.

SAIDOV Akmal Xolmatovich – yuridik fanlari doktori, professor.

YAKUBJANOVA Dilobar Batirovna – pedagogika fanlari doktori, dotsent.

TASHMUXAMEDOVA Diloram Gafurjanovna – tibbiyot fanlari nomzodi.

ZOXIDOV Azamat Azamjonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor.

ZIYAYEV Azamat Xamidovich – tarix fanlari doktori, professor.

ABDUSAMATOV Xasanboy Usmonjon o'g'li – psixologiya fanlari doktori.

TO'RAQULOV Ulug'bek Xolbutayevich – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (*PhD*)

ПРЕДСЕДАТЕЛЬ РЕДАКЦИОННОЙ КОЛЛЕГИИ:

Эгамбердиева Нодира Мелибаевна (*Главный редактор*) – доктор педагогических наук, профессор.

ЧЛЕНЫ РЕДАКЦИОННОЙ КОЛЛЕГИИ:

Нарбаева Таизила Камаловна – доктор социологических наук, профессор.

Сайдова Галина Каримовна – доктор экономических наук, профессор.

Шоумаров Гайрат Бахрамович – доктор психологических наук, профессор.

Абдураманов Хамид Худайбергенович (*Заместитель главного редактора*) – доктор экономических наук, профессор.

Бекмурадов Адхам Шарипович – доктор экономических наук, профессор.

Маъруфова Гулнора Махмудовна – сенатор, член Комитета Сената Олий Мажлиса по вопросам женщин и гендерного равенства.

Мусурманова Айниса Мусурмановна – доктор педагогических наук, профессор.

Рахимова Нигина Хайрullaевна – доктор экономических наук, профессор.

Сайдов Акмал Холматович – доктор юридических наук, профессор.

Якубжанова Дилюбар Батировна – доктор педагогических наук, доцент.

Ташмуҳамедова Дилюрам Гафуржановна – кандидат медицинских наук.

Зоҳидов Азamat Азамжонович – доктор экономических наук, профессор.

Зияев Азamat Хамидович – доктор исторических наук, профессор.

Абдусаматов Хасанбой Усмонжон угли – доктор психологических наук.

Туракулов Улугбек Холбутаевич – доктор философии педагогических наук (*PhD*)

THE CHAIRMAN OF THE EDITORIAL BOARD:

Egamberdiyeva Nodira Melibayevna

(*Editor-in-Chief*) – Doctor of Pedagogical sciences, Professor.

MEMBERS OF THE EDITING BOARD:

Narbayeva Tanzila Kamalovna – Doctor of Sociological sciences, Professor.

Saidova Galina Karimovna – Doctor of Economic sciences, Professor.

Shoumarov Ghayrat Bakhrayevich – Doctor of Psychological sciences, Professor.

Abduramanov Khamid Khudaybergenovich (*Deputy Editor-in-Chief*) – Doctor of Economic sciences, Professor.

Bekmuradov Adkham Sharipovich – Doctor of Economic sciences, Professor.

Marufova Gulnora Makhmudovna – Senator, Member of the Senate Committee of the Oly Majlis on Women and Gender Equality.

Musurmanova Aynisa Musurmanovna – Doctor of Pedagogical sciences, Professor.

Rakhimova Nigina Khayrullaevna – Doctor of Economic sciences, Professor.

Saidov Akmal Kholmatovich – Doctor of Juridical sciences, Professor.

Yakubjanova Dilobar Batirovna – Doctor of Pedagogical sciences, Associate Professor.

Tashmukhammedova Diloram Ghafurjanovna – Candidate of Medical sciences.

Zokhidov Azamat Azamjonovich – Doctor of Economic sciences, Professor.

Ziyayev Azamat Khamidovich – Doctor of Historical sciences, Professor.

Abdusamatov Khasanboy Usmonjon ugli – Doctor of Psychological Sciences.

Torakulov Ulugbek Holbutayevich – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (*PhD*)

XALQARO TAHIR HAY'ATI:

Doktor Rashmini Koparkar,

Rossiya va Markaziy Osiyon

o'rganish markazi dotsenti

Xalqaro tadqiqotlar maktabi,

Javoharlal Neru universiteti,

Nyu-Dehli, Hindiston

Artamonova Yekaterina Iosifovna,

Chelyabinsk davlat madaniyat

instituti,

pedagogika fanlari doktori, professor

Doktor Priti Kesavan,

Texnologiya fakulteti boshlig'i,

London biznes va moliya maktabi,

Singapur

МЕЖДУНАРОДНАЯ

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Доктор Рашмини Копаркар,

Доцент Центра исследований

России и Центральной Азии,

Школа международных

исследований,

Университет Джавахарлала Неру,

Нью-Дели, Индия

Артамонова Екатерина

Иосифовна,

Челябинский государственный

институт культуры,

доктор педагогических наук,

профессор

Доктор Прити Кесаван,

Руководитель Технологического

факультета

Лондонская школа бизнеса и

финансов, Сингапур

INTERNATIONAL EDITORIAL

BOARD:

Dr. Rashmini Koparkar

Assistant Professor

Centre for Russian and Central Asian

Studies

School of International Studies

Jawaharlal Nehru University

New Delhi, India

Artamonova Yekaterina Iosifovna

Chelyabinsk State Institute of Culture

Doctor of Pedagogical Sciences,

Professor

Dr. Preethi Kesavan

Head, School of Technology

London School of Business and

Finance, Singapore

MENEJMENT

Xaydarova J.A. Rahbar ayollarning boshqaruv kompetensiyaning rivojlantirish zaruriyati.....4

SOTSILOGIYA

| | |
|--|----|
| Muxamedjanova L. Oilaviy munosabatlarda yuksak ideallar – adolat, muhabbat, do'stlik, birodarlik, o'zaro hurmat-izzat tamoyillari..... | 12 |
| Axmedova D.O. Mehnat migratsiyasi feminizatsiyalashuvi: xotin-qizlar psixologiyasi va ijtimoiy identifikatsiya | 19 |
| Vaxidova S.A. Gender rollarining evolyutsiyasida ta'lif institutining o'rni: avlodlararo ijtimoiy tahlil..... | 26 |
| Komilova X.T. Xotin-qizlar ilmiy tadqiqotchilik faoliyatining sotsiologik tahlili | 37 |
| Xudoyberdiyeva M. O'smir yoshlarda kitobxonlik tushunchasi va kitob o'qishni rag'batlantirishga qaratilgan tadqiqot natijalari tahlili..... | 42 |
| Alimasov V.A. O'zbekistonning oila va xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash strategiyasi (ijtimoiy-falsafiy yondashuv)..... | 47 |
| Samanova Sh.B. Ekologik sivilizatsiya rivojida inson-tabiat munosabatlarining o'zgarib borishi | 53 |

OILA VA JAMIYAT

| | |
|---|----|
| To'rayev O.B. Jamiyat transformatsiyasi sharoitida ijtimoiy xavfsizlik holatiga demografik omilning ta'siri | 59 |
| Saipova M.L. Migratsiya daxl qilgan oilalarda voyaga yetayotgan o'smirlarda o'z-o'zini dolzarblashtirish jarayoni..... | 68 |
| Abduraximova F.Y. Oilalarda ma'nnaviy qadriyatlar vositasida xotin-qizlar faolligini takomillashtirishning innovatsion usullari..... | 73 |
| Ganiyev A.A. The role of pre-migration expectations in post-migration stress among Uzbek immigrants in Russia | 77 |
| Toshmurodov M.I. Oilaviy qadriyatlar va ularni harakatlantiruvchi determinantlar tasnifi | 82 |

PSIXOLOGIYA

| | |
|--|-----|
| Bo'riyeva M.Sh. Oila institutini mustahkamlashning psixologik aspektlari | 88 |
| Yangiboyeva D.R. Ko'p bolali oilalardagi shaxslararo munosabatlarning psixologik predikatlari | 93 |
| Raximova X. Oilada shaxsdagi stress va o'ziga nisbatan ishonchsizlik moddiy yetishmovchilik hissini yuzaga keltiruvchi psixologik omil sifatida | 99 |
| Nasrullayeva A.A. Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashning psixosotsial determinantlari | 104 |
| Sultanova S.M. Ayollarda aybdorlik hissi vujudga kelishining sabablari | 110 |
| Абдуганиева Д.А. Влияние семейного микроклимата на эмоциональное состояние личности в контексте тревожности | 115 |
| Асанова Г.М. Процессы социально-психологической адаптации родителей детей, больных онкологией | 122 |
| Olimjonova Z.B. Sevgining ijtimoiy-psixologik fenomen sifatida xorij olimlari tomonidan tadqiqi...128 | |
| Sharipova A.S. Analysis of the features of adaptation of adolescents to society in conditions of living in a family with violence | 136 |

PEDAGOGIKA

Matkarimov A.M. Xalqaro baholash tadqiqotlari asosida oilaning ta'lifi funksiyasini rivojlantirishga qaratilgan tahlil va tavsiyalar.....141

ILMIY YANGILIKLAR VA TAHILLAR

| | |
|--|-----|
| Hojiyev R.B. Talabalar turar joylarida istiqomat qiladigan qizlarni qo'llab-quvvatlash, mavjud ijtimoiy-axloqiy muammolarni hal etish masalalari (Turkiya tajribasi misolida) | 147 |
| Rustamova N.Y. Oilada kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan pedagogik tajriba-sinov natijalari va samaradorligining ilmiy tahlili..... | 154 |
| Bakirova N.B. Professional ta'lif muassasalari bitiruvchilari bandligini ta'minlash mexanizmlari....161 | |
| Mycaeva M.I. Ранняя реабилитация и социализация детей с двигательными нарушениями168 | |



Xudoyberdiyeva Marhabo,
Oila va gender ilmiy-tadqiqot instituti
tayanch doktoranti
e-mail: scorplife5@gmail.com

O'SMIR YOSHLARDA KITOBXONLIK TUSHUNCHASI VA KITOB O'QISHNI RAG'BATLANTIRISHGA QARATILGAN TADQIQOT NATIJALARI TAHLLILI

Annotatsiya. Maqolada o'smir yoshlarning kitobxonlik haqidagi fikrlari o'rganilgan. O'smir yoshdagi bolalarning kitob o'qishida tengdoshlari va oila a'zolarining ta'siri yuqori ekanligi aniqlandi. Olingen ma'lumotlar asosida o'smirlarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirishga xizmat qiluvchi amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Tayanch so'zlar: kitob o'qish, o'smirlar, oilaviy o'qish, o'qish jarayonida muntazamlilik, o'qilgan asarlarni tushunish, muhokama qilish, so'rovnoma, o'qish odatlari.

Аннотация. В данной статье изучались взгляды подростков на чтение и определялось влияние сверстников и членов семьи на данный процесс. Результаты исследования показали, что сверстники и семья оказывают существенное воздействие на читательские привычки подростков. На основании полученных данных были разработаны практические рекомендации по формированию культуры чтения среди подростков.

Ключевые слова: чтение книг, подростки, семейное чтение, систематичность чтения, понимание прочитанного, обсуждение, анкета, читательские практики.

Annotation. The article explores adolescents' perspectives on reading. It was found that peers and family members have a significant influence on adolescents' reading habits. Based on the data obtained, practical recommendations were developed to promote the formation of a reading culture among adolescents.

Keywords: reading book, adolescents, family reading, consistency in reading, comprehension of read works, discussion, survey methodology, reading habits.

Kirish. Bugungi kunda jamiyatimizda kitobxonlikni targ'ib etish, ayniqsa, yoshlarni kitob o'qishni rag'batlantirish, ularning o'qish va tushunish qobiliyatini rivojlantirish maqsadida jamiyatda kitobxonlik madaniyatini kengaytirishga qaratilgan bir qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Ushbu chora-tadbirlar ta'lim sohasini takomillashtirish, madaniy tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash, ijtimoiy sharoitlarni yaxshilash

va raqamli texnologiyalardan foydalanishni o'z ichiga oladi. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 13-sentabrdagi 3271-sonli qarori¹ hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 13-sentabr "Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida"gi PQ-3271-sonli qarori.

Mahkamasining 2020-yil 14-dekabrdagi 781-sonli qarori² qabul qilindi.

Mamlakatimizda aholining kitobxonlik darajasi va kitobga qiziqishini oshirish, kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan loyiha va tanlovlarni tashkil etishga alohida ahamiyat qaratilayotganligi bejis emas.

Jumladan, 2017-yildan boshlab o'tkazib kelinayotgan "Yosh kitobxon" tanlovi yoshlarning kitob mutolaasiga bo'lgan qiziqishini rag'batlantirib kelmoqda. Tanlovda 2017-yilda 250 ming, 2018-yilda 720 ming, 2019-yilda 1 million 210 ming, 2020-yilda 300 ming nafar yoshlarni ishtirok etish istagini bildirgan³ bo'lsa, bugungi kunga kelib ularning jami soni 4,7 million nafarga yetdi⁴.

2019-yilning 2–4-oktabr kunlari mamlakatimizda ilk marotaba ixtisoslashgan "Tashkent book fest–2019" birinchi Xalqaro kitob ko'rgazma-yarmarkasi tashkil etilib, unda Buyuk Britaniya, Germaniya, Janubiy Koreya, Rossiya, Turkiya, Qozog'iston va Qirg'iziston davlatlarining 20 ga yaqin xorijiy va 30 dan ortiq mahalliy nashriyot, 15 nafardan ortiq soha mutaxassis, keng jamoatchilik vakillari hamda yoshlarni ishtirok etdi⁵. Ushbu xalqaro kitob ko'zgazma-yarmarkasi haftaligi har yili "Kitobsevar millat" shiori ostida o'tkazib kelinmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yoshlar uchun ming kitob" loyihasini amalga oshirish to'g'risida"gi qarori⁶ ijrosi doirasida 2023-yil aprel oyidan Yoshlar ishlari agentligi tomonidan "Mutolaa" bepul mobil ilovasi yaratilgan. Loyiha maqsadi O'zbekistonda kitobxonlik madaniyatini yanada rivojlantirish, kitob o'qish va uning targ'ibotini zamонавиъи texnologiyalardan foydalangan holda yangi bosqichga olib chiqish,

² O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 14-dekabrdagi "2020–2025-yillarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash milliy dasturini tasdiqlash to'g'risida"gi 781-sonli qarori

³ G.Durdyeva Tafakkur qanoti. Madaniyat-2021. // <https://yuz.uz/uz/news/tafakkur-qanoti>

⁴ www.mtrk.uz O'zbekiston 24. Maxsus reportaj.

⁵ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 14-dekabrdagi "2020–2025-yillarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash milliy dasturini tasdiqlash to'g'risida"gi 781-sonli qarori (Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 14.12.2020 y., 09/20/781/1619-son; Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 05.04.2022 y., 09/22/153/0266-son).

⁶ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 28-noyabrdagi "Yoshlar uchun ming kitob" loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-380-sonli qarori, <https://www.lex.uz/docs/-6678312>

shuningdek, o'zbek va jahon adabiyotining eng sara namunalarini jamlab, aholi, jumladan, yoshlarni elektron, audio va video variantlarda bepul foydalanish imkoniyatini yaratishdan iborat⁷. "Mutolaa" loyihasi orqali 2023-yil yakuniga qadar 100ga yaqin o'zbek tilidagi elektron va audio kitoblar ishlab chiqildi. 2024-yil dekabr holatida "Mutolaa" mobil ilovasida 1700dan ortiq o'zbek va xorijiy elektron adabiyotlar jamlanib, mazkur adabiyotlardan 1600dan ortig'ining audio nusxasi yozib olingan⁸.

Maqsad va uni asoslash. O'smir yoshlarni o'rtaida kitob o'qishga qiziqishning pasayishi, kitobxonlik madaniyatining yetarli darajada rivojlanmaganligi dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Bu muammo nafaqat ta'lim sohasiga, balki o'smirarning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. O'smirarning aksariyati kitob o'qishning foydali jihatlarini anglamay, zamонавиъи texnologiyalar va ijtimoiy tarmoqlarga chalg'ib, kitob o'qish uchun vaqt topolmay qolmoqda. O'smir yoshlarning kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishdagi ushbu muammolar mavzuning dolzarbligini asoslab beradi.

Xo'sh, o'smirlik davri qanday davr? Nega aynan bu davrga kelib o'smir yoshlarning kitobga bo'lgan munosabatida tartibsizlik namoyon bo'ladi? Biz ota-onalar bu davrda o'smir yoshlarning kitob o'qishga qiziqishini oshirish uchun qanday yo'l tutishimiz kerak?

Psixologlar o'smir yoshlarning xarakter-xususiyatini ta'riflar ekan, o'smirlik davri insonni bolalikdan yoshlilikka o'tuvchi va o'z navbatida, boshqa davrlardan o'zining nisbatan keskinroq, murakkabroq kechishi bilan farqlanib turuvchi davrligini aytadi. Bu davr, taxminan, bolalarning 5–8-sinfлarda o'qish paytlariga to'g'ri keladi va 11–12 yoshdan 14–15 yoshgacha bo'lgan davr oralig'ida kechadi. Ayrim bolalarda bu davr 1–2 yil ertaroq yoki kechroq kuzatilishi ham mumkin. "Endi o'smir bola emas, biroq katta ham emas" ayni shu ta'rif o'smirlik davrining muhim xarakterini bildiradi. O'smirlik – bolalikdan kattalikka o'tish davri bo'lib, fiziologik va psixologik jihatdan o'ziga xos xususiyatlar bilan xarakterlanadi. Bu bosqichda bolalarning jismoniy va ruhiy taraqqiyoti

⁷ Mutolaa loyihasi. // <https://gov.uz/oz/yoshlar/news/view/10496>

⁸ Mutolaa platformasining statistika oynasi. // <https://statistics.mutolaa.com/>

jud tezlashadi, hayotdagi turli narsalarga qiziqishi, yangilikka intilishi ortadi, xarakteri shakllanadi, ma’naviy dunyosi boyiydi, ziddiyatlar avj oladi. O’smirlar o’zlarini kattalardek tutishga harakat qiladilar. Ular o’zlarining layoqat, qobiliyat va imkoniyatlarini ma’lum darajada o’rtoqlari va o’qituvchilariga ko’rsatishga intiladilar. O’smirlilik davri “o’tish davri”, “inqiroz davri”, “qiyin davr” kabi nomlarni olgan psixologik ko’rinishlar bilan xarakterlanadi. O’smirlilik davriga ko’pincha so’zga kirmaslik, o’jarlik, tajanglik, o’z kamchiliklarini tan olmaslik, urushqoqlik kabi salbiy xususiyatlar xosdir⁹.

Psixologik jihatdan o’smirlarning yosh xususiyatlarini o’rgana turib, ularning ijtimoiy hayotga moslashishida, shaxs sifatida shakllanib, o’z hissiyotlarini boshqara olishda ta’sir etadigan ijtimoiy omillardan biri kitobxonlik ekanini anglaymiz. Bu haqida V.A.Suxomlinskiy shunday yozadi: “Kitob o’qish – bamisolli bir darcha bo’lib, bolalar shu darchadan qarab, dunyonи ham, o’zlarini ham bilib boradilar.”¹⁰ Kitoblar o’smirlarga turli xil hayotiy vaziyatlar, insoniy munosabatlar, hissiyotlar va xulq-atvor namunalari bilan tanishish imkoniyatini beradi, bu ularga o’z shaxsiyatini shakllantirishda yordam beradi. Rossiyadagi Yuriy Levada milliy markazi tomonidan o’tkazilgan tadqiqot kitobxonlikning oilaviy munosabatlarga ham ijobiy ta’sir ko’rsatishini tasdiqlaydi.

Milliy markaz tomonidan 400 nafar o’smir yoshlar orasida tadqiqot olib borilgan. Tadqiqot natijalariga ko’ra, o’z farzandining ta’limiga e’tiborli bo’lgan kitobxon oilalarda ota-onalar va farzandlar munosabati do’stona bo’lishi, aksincha, o’qishga e’tibor bermaydigan oilalarda esa tushunmovchilik va janjal ko’proq bo’lishi aniqlangan¹¹. Bu shuni ko’rsatadiki, kitobxonlik oila a’zolari o’rtasida muloqotni yaxshilashga, bir-birini tushunishga, umumiyl qiziqishlar atrofida birlashishga va do’stona muhit yaratishga ko’maklashadi. Kitob o’qish ota-onalar va farzandlar o’rtasidagi munosabatlarni mustahkamlashning samarali vositasidir.

⁹ Davlatshin M.G va boshqalar. “Yosh va pedagogik psixologiya”. – Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU 3-son, 2004. – B. 63.

¹⁰ Suxomlinskiy V.A. Bolalarga jonim fido. Pedagogika nashriyotining 1979-y. nashridan tarj. – Toshkent: O’qituvchi, 1984. – B. 179.

¹¹ Чтение школьников и культурные ресурсы семьи // <https://www.levada.ru/2007/03/13/ctenie-shkolnikov-i-kulturnye-resursy-semi/>

Ilmiy muammoning tavsifi va yechimi.

O’smir yoshlarning kitobxonlik haqidagi fikrlarini o’rganish, kitob o’qishga bo’lgan qiziqishi va bunda tengdoshlari hamda oila a’zolarining ta’sirini aniqlash maqsadida ijtimoiy-pedagogik tadqiqotning so’rovnomada metodidan foydalanildi.

Respondentlar fikrini o’rganish maqsadida mamlakatimizning Buxoro, Namangan, Samarqand va Toshkent viloyatlari tasodifyi tanlov asosida tanlab olindi. So’rovnomada maqsadli tanlov asosida 5–8-sinf doirasidagi 274 nafar o’smir yoshlar ishtirok etdi.

O’smir yoshlarning kitobxonlik haqidagi tushunchalari so’ralganda respondentlarning 22,1%ni kitobxonlikni “ko’p kitob o’qish” deb tushunishlari aniqlandi. O’smir-yoshlarda kitob o’qishga qiziqish va intilishning mavjudligini ko’rsatsada, kitobxonlik faqatgina ko’p kitob o’qish bilan cheklanib qolmaydi. Ularda kitobxonlik deganda, kitobni o’qib tushunish, asar yuzasidan muhokama yuritish kabi tushunchalar shakllanmagan. Ular faqatgina o’qishga e’tibor berib, kitoblarning mazmunini tushunish va uni tahlil qilishga yetarli e’tibor berishmayotganini anglash mumkin.

27,2% o’smir-yoshlar kitobxonlikni “kitobni o’qib muhokama qilish” deb bilishadi. Bu o’smirlarda o’qilgan asarni tushunish va muhokama qilish ko’nikmasi borligini, ularning kitoblarni o’qish orqali o’zaro fikr almashishga va bilimlarini chuqurlashtirishga intilishini ko’rsatadi. Biroq ularda kitob o’qishga nisbatan muntazamlik tushunchasi shakllanmagan.

47,8% respondent kitobxonlikni “kitob o’qishda muntazamlik, o’qilgan asarning ma’nosini tushunish va uni muhokama qilish” deb tushunadi. O’smirlarning yarmiga yaqini kitobxonlikning to’liq ma’nosini tushunishini, muntazam kitob o’qish orqali bilimlarini boyitishga intilishini ko’rsatadi. Ular kitob o’qishni o’z-o’zini rivojlantirish va o’z fikrini ifoda etish uchun muhim deb hisoblashadi.

2,9% yoshlarkitobxonlikni shunchaki “yoqtirgan kitoblarni to’plash” deb biladi. Kitobxonlik darjasini kitoblarni to’plash bilan belgilanmaydi, balki o’qigan kitoblarning mazmunini anglab yetishda namoyon bo’ladi. Bunday o’smirlar uchun kitobxonlikni rivojlantirish, qiziqarli va samarali o’qish jarayonlarini shakllantirish talab etiladi.

So‘rov natijalari, o‘smlar o‘rtasida kitobxonlik madaniyatini shakllantirishda hali ham ko‘plab ishlarni amalga oshirish zarurligini ko‘rsatadi. O‘smlar orasida kitob o‘qishga qiziqish borligi ijobjiy holat, lekin bu qiziqishni kitobxonlikning to‘liq ma’nosini anglashga, muntazam o‘qish odatiga va o‘qilgan kitoblarni tahlil qila olish ko‘nikmasiga aylantirish kerakligini anglaymiz.

O‘smlar uchun kitob o‘qish jarayoni nafaqat individual, balki ijtimoiy faoliyat hamdir. O‘smyoshlar kitobdan olgan bilimlarini boshqalar bilan o‘rtoqlashish, o‘zgarning nuqtayi nazarlarini bilish va fikr almashish orqali boyitishni istaydilar. Kitob o‘qish o‘smlar uchun o‘zaro munosabatlarni o‘rnatish, ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirish va o‘z fikrlarini ifoda etish imkoniyatini beradi.

Shunga ko‘ra, o‘smlarning kitob o‘qish va uni muhokama qilishda ijtimoiy o‘zaro ta’sirning ahamiyatini o‘rganish belgilandi. O‘smyoshlarning kitoblarni kim bilan o‘qib muhokama qilishda ijobjiy ta’sir ko‘rsatishi aniqlandi.

29.3% o‘smlar do‘satlari bilan muhokama qilishni yoqtirishlarini ko‘rsatishgan. O‘smlar uchun o‘z tengdoshlari bilan fikr almashish, kitoblar haqida suhbatlashish juda qiziqrli va motivatsion hisoblanadi. Do‘satlari bilan o‘tkaziladigan muhokamalar erkin, norasmiy va o‘zlarini qulay his qilishiga yordam beradi. Bu guruh o‘zlarining fikrlari va kitobdan olgan bilimlarini tengdoshlari bilan erkin baham ko‘rishga intilishadi. Kitoblarni onasi bilan muhokama qilishni yoqtiradiganlar – 26.6%. O‘smlar uchun onasi bilan bo‘ladigan munosabatlar yaqin va ishonchli hisoblanadi, shuning uchun ular kitob o‘qish va fikr almashishda onalari bilan o‘rtoqlashishni afzal ko‘rishiadi. Oila davrasida kitob o‘qish va muhokama qilishni yoqtiradiganlar – 17.4%. Oilaviy o‘qish muhiti, bolalarga kitobga bo‘lgan muhabbatni singdirishda muhim ahamiyatga ega. Oilaviy muhokamalar kitob o‘qishni oilaviy odatga aylantirishga va o‘smlarda kitobga muhabbat uyg‘otishga yordam beradi. Bundan tashqari, bunday muhokamalar oila a‘zolarini yanada yaqinlashtirishi mumkin. Otasi bilan kitob muhokama qilish – 12.5%, buvilar bilan kitob muhokama qilish – 8.2%ni tashkil etadi. Otasi va buvilar bilan kitob muhokama qiladigan o‘smlarning foizi kamroq, lekin bu ham ularning oilaviy munosabatlarida kitob muhokamasi o‘z

o‘rniga ega ekanini ko‘rsatadi. O‘smlarning 6%ni kitoblarni yakka o‘zi o‘qib muhokama qilishni yoqtiradi, bu ularning individual yondashuvni afzal ko‘rishi va o‘z fikrlari bilan yolg‘iz shug‘ullanishni xohlashini anglatishi mumkin. (1-rasm).



1-rasm. Kitoblarni kim bilan o‘qib muhokama qilishni yoqtirasiz?

Ushbu ma’lumotlarga ko‘ra, kitob o‘qishni targ‘ib qilishda o‘smlarning o‘z do‘satlari, oilasi bilan kitob o‘qishi va uni muhokama qilishlarini rag‘batlantirish muhimligi aniqlandi.

Qanday turdagи kitoblarni o‘qishni yoqtirasiz? savoliga o‘smyoshlar turli xil kitob turlarini yoqtirishlarini bildirishgan.

O‘smlar orasida ko‘p o‘qiladiganlari – qahramonlik va detektiv janrdagi kitoblar 23.9%ni tashkil etib, eng ommabop ekanini ko‘rsatdi. Jamiyatimizda tarbiyaga beriladigan e’tibor yuqorida. Shu bois, o‘smyoshlar o‘zlarini uchun foydalari va ibratli bo‘lgan kitoblarga qiziqish bildirib, tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lgan kitoblarni tanlagan yoshlar 21.8%ni tashkil etdi. Ensiklopediyalarni o‘qishni yoqtiradiganlar 17.9%ni tashkil etib, bu ko‘rsatkich yoshlarning bilim olishga, dunyoni o‘rganishga, yangi ma’lumotlar olishga intilishini ko‘rsatadi. Darsliklarni o‘qishni yoqtiradiganlarning foizi 12.4%. Darsliklarning ta’lim tizimida muhim o‘rin tutishini inobatga olsak, bu javob o‘quvchilarning o‘z majburiyatlarini anglashini va ta’lim olishga jiddiy yondashishini ko‘rsatadi. O‘yinli kitoblar va tushunishi oson bo‘lgan rasmiy kitoblarni tanlaganlar 9.0%ni, gazeta va jurnallarga qiziqish 3.4%ni tashkil etdi. E’tiborli jihat shundaki, kitob o‘qishni yoqtirmaydigan yoshlar ham bor ekanli, ular respondentlarning 2.6%ini tashkil etadi. O‘smlar orasida kitob o‘qishni yoqtirmaydiganlar kam sonli bo‘lsa-da, buning sabablarini o‘rganish va ularni kitob o‘qishga undash yo’llarini izlash talab etiladi. (2-rasm).



2-rasm. Qanday turdagি kitoblarni o'qishni yoqtirasiz?

O'smirlar uchun kitoblarni tanlashda, ularning qiziqishlariga mos bo'lgan janrlarni targ'ib qilish va kitobxonlikni rag'batlantirishda o'smirlar qiziqadigan janrlardan foydalanish orqali samarali natijaga erishish mumkin.

Yakuniy qism. O'qish jarayonida mutazamlilik, o'qilgan asarlarni tushunish va muhokama qilish o'quvchilarining fikrlash qobiliyatini kengaytirishga yordam beradi. O'qish odatlari bo'yicha olib borilgan tadqiqotlardan shuni bibilish mumkinki, o'qilayotgan asarlar va ularning mazmunini to'g'ri tushunish bolalarning fikrlash

tizimini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Turli xildagi muhokamalar va fikrlar o'smir yoshlarni o'z g'oyalari bilan ishslashga va yangi fikrlarni qabul qilishga o'rgatadi.

O'tkazilgan so'rovnoma natijalari asosida quyidagi taklif va tavsiyalarni berish mumkin:

1. O'smirlarni har kuni kitob o'qishga odatlantirish, muntazam o'qishni rag'batlantirish uchun maktablarda, kutubxonalarda va jamoat joylarida o'smirlar uchun kitobxonlik klublarini tashkil qilish, ularni birgalikda o'qish, muhokama qilish va fikr almashish imkoniyatlarini yaratish.

2. Ota-onalarni farzandlariga kitob o'qishda o'rnatish, o'z vaqtida ularni kitob bilan ta'minlash, farzandlari bilan kitob o'qish va muhokama qilishga undash, oilaviy kitob o'qish soatlarini tashkil qilish.

3. O'smirlarga kitob tanlashda yordam berish, ularning yoshiga va qiziqishlariga mos keladigan kitoblarni tavsiya qilish lozim. Elektron va audio kitoblardan, shu jumladan, onlayn kutubxonalardan foydalanishni ommalashtirish, kitob o'qishning o'smirlar uchun qulay va zamonaviy shart-sharoitlarini yaratib berish lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 13-sentyabrdagi "Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida"gi 3271-son qarori. <https://www.lex.uz/ru/docs/-3338600>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 28-noyabrdagi –“Yoshlar uchun ming kitob” loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-380-son qarori. <https://www.lex.uz/docs/-66783123>.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 14-dekabrdagi “2020–2025-yillarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash milliy dasturini tasdiqlash to'g'risida"gi 781-son qarori. <https://lex.uz/docs/-5160827?ONDATE2=14.12.2020&action=compare>
4. Davlatshin M.G va boshqalar. Yosh va pedagogik psixologiya". – Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU 3-son, 2004. – B. 63.
5. Suxomlinskiy V.A. Bolalarga jonim fido. Pedagogika nashriyotining 1979-y. nashridan tarj. – Toshkent: O'qituvchi, 1984. – B. 179.
6. Durdiyeva G. Tafakkur qanoti. Madaniyat–2021 // <https://yuz.uz/uz/news/tafakkur-qanoti>
7. O'zbekiston 24. Maxsus reportaj // www.mtrk.uz
8. Mutolaa loyihasi // <https://gov.uz/oz/yoshlar/news/view/10496>
9. Mutolaa platformasining statistika oynasi // <https://statistics.mutolaa.com/>
10. Чтение школьников и культурные ресурсы семьи // <https://www.levada.ru/2007/03/13/chtenie-shkolnikov-i-kulturnye-resursy-semi/>

MUASSIS:
“Oila va gender” ilmiy-tadqiqot instituti

JURNAL TAHRIRIYATI:

Bosh muharrir: **Egamberdiyeva N.**
Bosh muharrir o‘rinbosari: **Musurmanova A.**
Mas’ul kotib: **Mavlonov B.**
Muharrirlar: **Yunusov U., Sobirova E.,
Jabborov U.**
Sahifalovchi: **Umaraliyev Z.**
Dizaynerlar: **Abdullahov L., Sobirov F.**
Web dizaynerlar: **Yakubov O., Alimova Z.**

*Jurnaldagи materiallardan foydalanylгanda mualliflik huquqini e’tiborga olgan
holda jurnalga havola berilishi shart.*

*Jurnalga kiritilgan maqola materiallari mazmuni mualliflarning shaxsiy
ilmiy-nazariy yondashuvi va qarashi sifatida talqin qilinadi.*



1940

Nashriyot ro‘yxat raqami № 1043191. 24.09.2021-y.
Bosishga ruxsat etildi: 27.12.2024.
“Times New Roman” garniturasi. Qog‘oz bichimi: 60x84 1/8
Nashriyot bosma tabog‘i 7,2.
100000, Toshkent shahri, Mirzo Ulug‘bek tumani,
M.Ismoiliy ko‘chasi 1-G uy.